
Farg'ona shahrining "Master rejasi"ni ishlab chiqish bo'yicha eng yaxshi takliflarni tanlash maqsadida tanlov e'lon qilinadi

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-oktyabrdagi 548-F-sonli Farmoyishining 4-bandiga ijrosini ta'minlash maqsadida, Farg'ona shahri va unga tutash hududdagi mahallalarni rivojlantirish uchun Farg'ona viloyati hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" Injinering kompaniyasi buyurtmachiligidagi hududlarni rivojlantirishning yagona konsepsiysi – "Master-reja"ni ishlab chiqish bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlangan mamlakatlarning konsalting, arxitektura va loyiha kompaniyalari ekspertlari bilan "Master-reja"larni ishlab chiqish bo'yicha istisno tariqasida eng yaxshi takliflarni tanlash maqsadida tanlov e'lon qilinadi.

Xorijiy kompaniyalar tomonidan master rejalarini ishlab chiqish takliflari va boshqa tegishli hujjatlarni taqdim etish muddati 2022-yil 25-noyabrga qadar.

Loyiha topshirig'i: [fergana.uz pages](http://fergana.uz/pages)

Baholash mezonlari:

1. Texnik tasdiqlash sifati (ko'rish+yondashuv): 30 %
2. Loyiha jamoasining sifati (xodimlar): 20 %
3. Portfolio va shunga o'xshash loyihalar (tajriba) 20 %
4. Ish rejasi (jadval) 10 %
5. Moliyaviy taklif (narx): 20 %

Takliflarni taqdim etish uchun:

Buyurtmachi: Farg'ona viloyati hokimligi Injiniring kompaniyasi

Telefon: (73) 244-55-64 (93) 980-92-96

Manzil: Farg'ona viloyati, 150100, Farg'ona shahar Temir yo'l ko'chasi, 37-uy

email:info@ferghana.uz

2022-11-09 18:19:35